

## **SAMARQANDLIK LARNING KO‘CHIRIB KELITIRILGAN AHOLIGA KO‘RSATGAN INSONPARVARLIK YORDAMI**

**Zarina Abdurahmonovna BODIROVA,**

Oriental universiteti, Tarix yo‘nalishi 2-kurs magistranti

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada Ikkinchi jahon urushi davrida o‘zbek xalqining insoniylik, oliyanoblik, bolajonlik fazilatlarini urush ketayotgan hududlardan va frontga yaqin joylardan ko‘chirib keltirilgan aholiga, bolalarga ko‘rsatgan ochiq ko‘ngilligi, hamdardligi va g‘amxo‘rligida o‘z ifodasini topgan holat aks etganligi tahlil qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** o‘zlashtirish, ko‘chish, insonparvarlik, bolalar himoyasi, muhtojlik.

### **ABSTRACT**

*This article discusses the situation in which humanity, nobility, and childlike qualities of the Uzbek people were reflected during the Second World War. It was analyzed that the situation reflected in the open heart, sympathy and care shown to the people and children relocated from the war zones and places close to the front.*

**Key words:** assimilation, migration, humanitarianism, child protection, need.

### **KIRISH**

O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti huzurida 1941 yil 10 iyulida maxsus komissiya tuzildi va mahalliy sovetlarning ijroiya qo‘mitalari qoshida tuzilgan alohida bo‘limlar kishilarni hisobga olish va joylashtirish bilan shug‘ullandilar. 1941 yilning noyabr oyida O‘zbekiston Xalq Komissarlar Soveti va O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasining respublikamizga ommaviy ravishda ko‘plab aholi va bolalarni ko‘chirib keltirilishi munosabati bilan “Frontga yaqin joylardan ko‘chirib keltirilgan bolalarni joylashtirish haqida”gi qarori qabul qilindi. Bu qaror munosabati bilan Toshkent shahridagi markaziy temir yo‘l vokzali qoshida “Bolalarni evakuatsiya qilish markaziy punkti” tashkil etildi. Bu punktning Samarqand temir yo‘li qoshida ham evakopunkt bo‘limi vujudga keldi. Bu evakopunktida bir kecha–kunduzda minglab kishilar qabul qilib olindi.

Ko‘chirib keltirilgan bolalarni qabul qilib olish, ularni bolalar uylariga, kollektivlarga joylashtirish, yakka tartibda tarbiyaga olish, o‘qitish, ishlab chiqarishga yuborish, adashib yurgan balog‘atga etmagan, qarovsiz qolgan bolalarni topib ro‘yxatga olish, ularni rejali joylashtirish kabi mas‘uliyatli ishlarni bajarishda evakopunkt xodimlari tinimsiz ishladi.

Qisqa vaqt davomida Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Moldaviya, Boltiqbo‘yi Respublikalaridan ko‘chirib keltirilgan bir milliondan ko‘proq kishilar va 200

mingdan ziyod etim bolalarni O‘zbekiston xalqi o‘z bag‘riga olar ekan, shundan 165 ming kishi Samarqand viloyatiga joylashtirildi. Ulardan 20 mingdan ziyodi bolalar edi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Viloyat mehnatkashlari ko‘chirib keltirilgan aholini bag‘rikenglik bilan qabul qilib oldi. Ularni boshpana va ish bilan ta‘minladi. Xalq o‘z noni, kiyim–kechagi, turar joyini ko‘chib kelganlar bilan baham ko‘rdi. Ko‘chirib keltirilganlarga Samarqandning o‘zida olti kvartirali to‘rtta uy, yaxshi isitilgan oltita barak (ko‘p kishi yashaydigan bino-A.B) qurib berildi, studentlarning yotoqxonolari va bo‘sh kvartiralar ajratib berildi.<sup>1</sup>

1941 yilning oktyabr-dekabr oylarida shaharga ko‘chirib keltirilayotganlar, ayniqsa, ko‘payib ketdi. Ko‘chib kelganlarning ko‘pchilik qismi Samarqand shahrining o‘zida o‘rnashib qoldi. Bu jarayon shaharda aholining zichlashuviga olib keldi, yuvinish joylari, dezinfeksiya qiladigan kameralar etishmasligi shaharda yuqumli kasalliklar paydo bo‘lish xavfini tug‘dirdi. 1942 yilning yanvarida bu masala shahar partiya aktivi yig‘ilishida muhokama qilindi va chora-tadbirlar belgilandi.

1942 yilning yanvar oyida Toshkent shahrida jamoatchi xotin-qizlarning yig‘ilishi bo‘lib o‘tadi. Yig‘ilish qatnashchilari respublikamizdagi barcha ayollarga qarata murojaatini qabul qiladi. Murojaatda etim bolalarni o‘z tarbiyasiga olishga da‘vat etiladi.

Bu murojaat va O‘zbekiston Xalq Komissarlar Sovetining 1942 yil fevral oyida qabul qilgan “Front yoqasidan ko‘chirib keltirilgan bolalarni joylashtirish to‘g‘risida”gi qarori respublikaning hamma joyida: shahar va qishloqlarda, korxonalar va muassasalarda, ko‘cha va mahallalarda keng va har tomonlama muhokama qilindi hamda hamjihatlik bilan ma‘qullandi. Murojaatda etim bolalarni o‘z tarbiyasiga olishga da‘vat etilar ekan, ko‘plab oilalar boquvchisiz qolgan bolalarni o‘zlariga farzandlikka oldilar, topgan-tutganlarini ular bilan baham ko‘rdilar.

Samarqand viloyat mehnatkashlari bu murojaatga javoban qizg‘in ish boshlab yubordilar. Ko‘pgina oilalar ko‘chirib keltirilgan ota-onasidan, boquvchisidan ajralgan, vaqtincha yoki doimiy etim bo‘lib qolgan bolalarni ota-onalik mehri bilan qabul qilib oldilar.

Viloyatdagi F.Engels nomli kolxoz raisi Fotima Qosimova uyida olti farzandi bo‘lgani holda front yoqasidan ko‘chirib keltirilgan, vaqtincha yoki doimiy boquvchisidan ajralgan 10 ta bolani farzandlikka oldi.<sup>2</sup> Samarqandlik Niyoz Fuzaylov frontdan og‘ir yarador bo‘lib qaytgandan keyin, turmush o‘rtog‘i bilan birga

<sup>1</sup> Самарқанд тарихи. Икки томлик. 2-том. Т.: Масъул муҳаррир И.Мўминов “Фан”, 1970. – Б.235.

<sup>2</sup> Самарқанд тарихи. Икки томлик. 2-том. Масъул муҳаррир И.М.Мўминов. Т.: “Фан”, 1970. – Б.238.

o'qituvchilik qilib, farzandlari qatori etti nafar etim bolani ham tarbiyalashdi. Viloyatning Kattaqo'rg'on shahridan bo'lgan urush nogironi Abduhamid Samadovning insonparvarligi va baynalminalligi butun dunyoga ovoza bo'ldi. U urushdan nogiron bo'lib qaytgach, urushning oxirlari va urush tamom bo'lgandan keyingi yillarda o'zi hali bo'ydoq bo'lishiga qaramay, bolalarning kimligi – tili, irqi va millatidan qat'iy nazar 16 bolani olib tarbiyalaydi.<sup>3</sup>

Samarqand paxta tozalash zavodining masteri Nurillaev, shu zavod jin mashinalari sexining boshlig'i Prokopovich, shoira Ra'no Uzoqova, Paxtakor tumanidagi Qarnab qishloq Sovetining raisi Ahmedov, muallimlardan Nurmanov, Navro'zov va boshqa ko'pgina kishilar ko'chirib keltirilgan bolalarni o'z oilalari tarbiyasiga oldilar.

Ko'chirib keltirilgan, ota-onasidan ajrab qolgan bolalarni joylashtirish uchun viloyat ijroiya qo'mitasi va partiya komiteti qaroriga ko'ra Samarqandning qishloq tumanlari Jomboy, Bulung'ur, Forish, Narpay, Pastdarg'om va viloyatning boshqa tumanlarida 8 ta bolalar uyi tashkil etilib, ular 4270 bolani tarbiyalashni o'z zimmlariga oldilar. Samarqand shahridagi 11 ta bolalar uyiga qo'shimcha ravishda 660 bola joylashtirildi.<sup>4</sup>

1942 yilning boshlariga kelib Samarqand shahridagi mavjud 10 ta bolalar uyida 1512 bola tarbiyalandi, ulardan 590 nafari front yoqasidan ko'chirib keltirilgan bolalar edi. Bolalar uyida tarbiyalanuvchilar oy sayin ko'payib, 1943 yil yoz oylarida 1810 kishiga etdi. Bundan tashqari Samarqand shahrida polyak bolalari uchun bolalar uylari ochildi. Moskvadan ko'chirib keltirilgan 120 ispan yoshlari uchun internat ishga tushirildi.<sup>5</sup>

Samarqand paxta tozalash zavodi jamoasi 16 go'dak uchun uy-joy va hamma zarur imkoniyatlarni yaratdilar. Samarqand tumanidagi meva-konserva zavodi jamoasi, Kalinin nomli kolxoz va boshqa yuzlab xo'jaliklar, idoralar respublikamizga keltirilgan bolalarni tarbiyalash uchun bolalar muassasalarini tashkil etdilar. Viloyat mehnatkashlari maxsus tashkil etilgan bolalar uylariga 1100 bolani joylashtirdilar, ular uchun ajratilgan xonalar kerakli narsalar bilan jihozlandi. Tarbiyalanuvchilar oziq-ovqat, kiyim-kechak, ko'rpa-yostiq, o'yinchoq kabilar bilan ta'minlanib turildi.

Samarqand viloyati mehnatkashlarining insoniylik fazilatlaridan biri shu bo'ldiki, frontga yaqin tumanlardan ko'chirib keltirilgan 165 ming kishini joylashtirdilar va ularga mehribonliklar ko'rsatdilar. Faqat 1942 yilning 20 fevraliga qadar ko'chirib keltirilganlardan 8 ming kishi Bog'ishamol tumaniga joylashtirildi.

<sup>3</sup> Турдиев С. Улуғ Ватан уруши йилларида Ўзбекистон меҳнаткашларининг кўчириб келтирилган болаларга ғамхўрлиги Т.: “Фан”, 1987. – Б.27.

<sup>4</sup> Самарқанд тарихи. Икки томлик. 2-том. Масъул муҳаррир И.Мўминов. Т.: “Фан”, 1970. – Б.238.

<sup>5</sup> Турдиев С. Улуғ Ватан уруши йилларида Ўзбекистон меҳнаткашларининг кўчириб келтирилган болаларга ғамхўрлиги Т.: “Фан”, 1987. – Б.33.

Temiryo‘l tumaniga nemislar bosib olgan hududlardan 1663 oila ko‘chirtirib kelindi. Samarqandliklar ota-onasiz qolgan 20 mingdan ziyod bolani o‘z bag‘riga oldilar.<sup>6</sup>

Ikkinchi jahon urushi yillarida Samarqand viloyati bolalarni qabul qilib olish punktlariga 1131 nazoratsiz, 1048 qarovsiz qolgan va 83 adashib yurgan, jami 2262 bola topshirildi.<sup>7</sup>

Urush yillarida Samarqand viloyatiga frontga yaqin hududlar va urush ketayotgan joylarga emas, balki urushga tortilgan, fashistlar Germaniyasi tomonidan bosib olingan davlatlardan ham bolalar va aholi ko‘chirib kelindi. Ularga xalqimiz mehr va insoniylik yordamini ko‘rsatdi. Ko‘chirib keltirilganlarga o‘z uylaridan joy berdi, maxsus bolalar uylari tashkil qilindi va internatlarga joylashtirildi.

Samarqand viloyatida tashkil etilgan bolalar uyiga polyak bolalari joylashtirildi. Keyinchalik viloyatning Narpay tumanida polyak bolalari uchun yana uchta bolalar uyi tashkil etildi. Bolalar uyini kerakli narsalar bilan ta‘minlash maqsadida maxsus fond tashkil etildi. Bundan tashqari bolalar uylariga otaliqdagi xo‘jalik yoki tashkilotlarning yordami kuchaytirildi.

Samarqand viloyat xalq deputatlari ijroiya qo‘mitasining 1942 yil 12 maydagi qarori bilan Narpay tumanidagi polyak bolalar uyining yordamchi xo‘jaligi uchun 500 kg va Samarqand shahridagi polyak bolalar uyining yordamchi xo‘jaligi uchun 500 kg kartoshka urug‘i ajratildi.<sup>8</sup>

Samarqand davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori SHodmonqul Pirimqulov “Polyak fuqarolari Samarqandda (1941-1946 y.y.)” nomli monografiyasida polyak fuqarolarining Samarqand viloyatiga ko‘chirtirib kelinishi, joylashtirilishi va ish bilan ta‘minlanishi, polyak bolalarini o‘qitish, ularni tarbiyalashni quyidagicha ta‘riflaydi:

“1941 yil 1 oktyabrdan SSSR Ichki Ishlar xalq komissarligi ko‘rsatmasiga muvofiq, O‘zbekiston hududiga dastlab 100 ming polyak fuqarolarini joylashtirish ko‘zda tutilgan edi. SHundan 25 000 kishi Samarqand viloyati hududiga kelishi kerak edi.

1941 yilning 3 oktyabrida Samarqand viloyati ijroiya qo‘mitasi “mutlaqo maxfiy” grifi bilan “Viloyat tumanlarida 25 000 ko‘chirib keltirilgan polyak fuqarolarini joylashtirish haqida “№ 30-qarorini qabul qildi. Bu qarorning birinchi bandiga binoan, viloyat tumanlariga polyak fuqarolarini joylashtirishning quyidagi tartibi belgilandi:

<sup>6</sup> X. Аминов, Н.Иброхимов Самарканд – фронтга. Самарканд. Сўғдиёна, 1994. – Б-34.

<sup>7</sup> Ефимов В.И. Патриотические подвиги трудящихся Самаркандской области в годы Великой Отечественной войны. Самарканд, 1962. – С.13.

<sup>8</sup> Самарканд вилояти давлат архиви (Самарканд ВДА), 74-фонд, 1-рўйхат, 4407-иш, 330-варак.

Pastdarg‘om tumaniga 3000 kishi, Jizzaxga – 2500, Qoradaryo, Paxtakor, Payariq, Jomboy va Bulung‘ur tumanlarining har biriga – 2000 kishidan, Narpay, Oqdaryo, Zomin, G‘allaorol va Mitan tumanlarini har biriga – 1500 kishidan, Kattaqo‘rg‘on va Xatirchi tumanlariga 1000 kishidan joylashtirishi rejalashtirildi”.

SH. Pirimqulov ma‘lumotlariga ko‘ra , 1944 yilning oxiri va

1945 yilning boshlarida viloyat hududida polyak fuqarolarining soni 13500-13700 kishi bo‘lib, ular viloyat tumanlarida quyidagicha joylashgan, ya‘ni Kattaqo‘rg‘on tumanida – 1475 kishi, Narpayda – 920 kishi, Pastdarg‘omda – 845, Jizzaxda – 685, Bulung‘urda – 560, Paxtakorda – 55, G‘allaorolda – 430, Xatirchida – 370, Zominda – 280, Payariqda – 250, Jomboyda – 164, Qoradaryoda – 130, Oqdaryoda – 120, Komsomol (hozirgi Tayloq)da – 75, Urgutda – 75, Forishda – 14, Nurota tumanida esa 12 kishi, shahardagi Siyob tumanida – 3658 kishi, Temiryo‘l tumanida – 786, Bog‘ishamol tumanida esa 537 kishini tashkil etgan.<sup>9</sup>

Ko‘chirtirib kelgan polyak fuqarolari viloyat hududidagi yirik korxonalar, zavod, fabrika, qurilish ob‘ektlari, jamoa va davlat xo‘jaliklarida faoliyat ko‘rsatgan. Ularni Samarqand shahridagi harbiy mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalar ishchilari orasida Zomin g‘allakorlariyu, Narpay paxtakorlari o‘rtasida, Langar konchilari yonida xullas, sanoat va xalq xo‘jaligining front uchun xizmat qilayotgan barcha jabhalarida ko‘rish mumkin edi. Urush yillarida Bulung‘ur va Narpayga ko‘chirib keltirilgan va ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan qand zavodlariga 200 ga yaqin polyak mutaxassislari ishga jalb qilingan edi.<sup>10</sup>

Viloyat hududidagi polyak fuqarolarining bir qismini ularda bo‘lgan mutaxassislik sohasi bo‘yicha ish bilan ta‘minlanishiga erishilgan. Misol uchun, 1945 yilga kelib viloyatda 54 muxandis, 298 buxgalter, 114 o‘qituvchi, 183 shofyor, 40 tipografiya xodimi va 14 huquqshunos o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha ishlaganlar. Polyak fuqarolarining bir qismi viloyatdagi harbiy sanoat korxonalariga ishga joylashtirilgan, jumladan, front ehtiyojlari uchun mahsulot ishlab chiqaradigan “Kinap” va “Krasniy dvigatel” (hozirgi “Alpomish”) zavodlarida ulardan 51 kishi mehnat qilgan.<sup>11</sup> Viloyat hududidagi Qo‘ytosh koni qurilishiga polyak fuqarolaridan 40 kishi, Langar koni qurilishiga 50 kishi va Ingichka koniga 40 kishi ishlash uchun safarbar qilingan.<sup>12</sup>

Polsha fuqarolari orasida o‘z kasbining mohir ustalari bo‘lgan hunarmandlar ko‘pchilikni tashkil etgan. Samarqand viloyatida ularning soni 550 dan ko‘p bo‘lganligi, aksariyat hollarda, polshalik hunarmandlarga o‘zlarining artellarini tuzish

<sup>9</sup> Pirимқулов Ш. Поляк фуқаролари Самарқандда (1941-1946 й.й.). Самарқанд “Зарафшон”, 1999. – Б. 19-20.

<sup>10</sup> Самарқанд вилоят давлат архиви, 10 й.ж, 88-варақ.

<sup>11</sup> Самарқанд ВДА, 78-фонд, 12-рўйхат, 68-йиғма жилд, 88-варақ.

<sup>12</sup> Ўша жойда.

imkoniyati berilgan. Viloyat hududidagi artellarda “Vatan”, “Kirov” (Samarqand shahrida) “Mehnat” (Pastdarg‘om tumanida), “Trud” arteli (Jizzax shahrida) da 150 dan ortiq polshalik hunarmandlar o‘z mahoratlarini namoyon qildi.<sup>13</sup>

Umuman olganda, 1945 yilga kelib viloyatdagi 13 mingga yaqin polshalik fuqarolardan 4907 kishi sanoat, qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik, meditsina sohasi, turli ta‘lim tizimlari va boshqa sohalarda foydali mehnat bilan band bo‘lganlar.<sup>14</sup>

## REFERENCES

1. X. Аминов, Н.Иброхимов Самарқанд – фронтга. Самарқанд. Сўғдиёна, 1994. – Б-34.
2. Ефимов В.И. Патриотические подвиги трудящихся Самаркандской области в годы Великой Отечественной войны. Самарканд, 1962. – С.13.
3. Самарқанд вилояти давлат архиви (Самарқанд ВДА), 74-фонд, 1-рўйхат, 4407-иш, 330-варақ.
4. Пиримкулов Ш. Поляк фуқаролари Самарқандда (1941-1946 й.й.). Самарқанд “Зарафшон”, 1999. – Б. 19-20.

<sup>13</sup> Самарқанд ВДА, 74-фонд, 12-рўйхат, 68-йиғма жилд, 88-варақ.

<sup>14</sup> Пиримкулов Ш. Поляк фуқаролари Самарқандда (1941-1946 й.й.). Самарқанд “Зарафшон”, 1999. – Б. 38.